


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**




**XORIJIY SHARQ TILI
(HINDIY TILI)
FANINING O‘QUV DASTURI**


Bilim sohasi: 200 000-San‘at va gumanitar fanlar
Ta‘lim sohasi: 230 000-Tillar
Ta‘lim yo‘nalishlari: 60230100 - Filologiya va tillarni o‘qitish
(sharq tillari bo‘yicha)

Toshkent – 2025

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori:  X.V. Mirzaxmedova

Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi boshlig'i:  N.B. Xodjayeva

ARM boshlig'i:

 M.M. Yuldasheva

Fan/modul kodi XShT11-880		O'quv yili 2025/2026 2026/2027 2027/2028 2028/2029	Semestr 1,2,3,4,5,6,7,8	ECTS - Kreditlar 10,10,10,10,10,10,10,10	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 10,10,10,10,10,10,10,10	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Xorijiy sharq tili (hindiy tili)	960	1440	2400	
2.	<p align="center">I. Fanni o'qitishdan maqsad</p> <p>Fanning maqsadi: oliy ta'lim muassasalari talabalariga hindiy tilidan chuqur bilimlar berish asosida A1-C1 darajalariga mos ravishda eshitib tushunish, gapirish, o'qish, yozish va grammatika bo'yicha bilim, ko'nikma va til malakalarini hosil qilish hamda oliy ta'lim muassasalari (magistratura) va oliy ta'limdan keyingi bosqichga maqsadli tayyorlashdan iboratdir.</p> <p>Fanning vazifasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - o'qitish soddadan murakkabga tamoyiliga asoslanib, hindiy tilining nazariy va amaliy asoslari haqida atroflicha bilim berish, ularda hindiy tilida erkin va mustaqil mushohada yuritish, egallagan bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llash malakasini shakllantirish; - hindiy tili darslarida turli nutqiy vaziyatlarga taalluqli bo'lgan autentik kasbiy-yo'naltirilgan fikrlarning asosiy mazmunini bir marotaba eshitishda to'liq tushunish va zaruriyat tug'ilganda undan aniq ma'lumotni ajratish; - ro'y berayotgan voqea-hodisalar haqidagi yangiliklar va reportajlarni, shuningdek, ko'pgina filmlar mazmunini tushunish, kasbiy-yo'naltirilgan kommunikativ vaziyatlarga taalluqli erkin va standart dialoglarda ishtirok etish; - o'z ona tili va hindiy tilida o'qilgan yoki tinglangan ko'pgina autentik fikrlar (diskurs) asosida tilga oid, nutqiy va mazmuniy tayanchlardan foydalangan holda kasbga yo'naltirilgan ma'lumotlarni ifodalash uchun til materiallarning barcha turlarini yarata olish; - soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot olib borish ko'nikmalarini hosil qilish hamda tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid ko'nikmalarga ega bo'lish. <p>Xorijiy tajribaga muvofiqligi: Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Cambridge University (QS 4, THE 5) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi. https://www.cam.ac.uk/</p>				

II. Asosiy amaliy qism (amaliy mashg'ulotlar)

(Ibrat farzandlari platformasida berilgan darslar semestr mavzulariga mos ravishda joriylantiriladi)

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish yuzasidan oliy maktab tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar dars jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy topshiriqlar, mashqlar, grammatik masalalarni keyslar va organayzerlar orqali bajarish natijasida yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash, foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

A1 BOSHLANG'ICH DARAJA (1-SEMESTR)

1-mavzu. "Xorijiy sharq tili" (hindiy tili) fanining mazmuni, predmeti va metodi. Hindiy tilining tarixi va shakllanish bosqichlari

"विदेशी पूर्वी भाषा" (हिंदी भाषा) विषय की विषयवस्तु, विषय और विधि। हिंदी भाषा का इतिहास और विकास की अवस्थाएँ

Grammatika: Hindiy tilining tarixi va shakllanish bosqichlari. Hindiy tilining nazariy-metodologik manbalari haqida umumiy ma'lumotlar

Yozish: Mavzuga doir ma'lumotlarni to'plash (internet va ARM yordamida)

O'qish: Mavzuga doir ma'lumotlarni mutolaa qilish (internet va ARM yordamida)

Gapirish: Mavzuga doir ma'lumotlarni gapirib berish (internet va ARM yordamida)

2-mavzu. Hindiy tilida fonetikasi

हिंदी भाषा की वर्ण और वर्तनी

Grammatika: Hindiy tili tovushlari va harflari. Unli tovushlar va ularning ifodalanishi. Talaffuzi o'zbek tiliga o'xshash tovushlar, a, ā, u, ū, e tovushlarining undoshlardan so'ng yozilishi. [A:5, 6-7]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish [A:5, B.8-9]

O'qish: Berilgan so'z va qisqa jummalarni talaffuz qilish va yodlash [A:1, B.5]

Tinglab tushunish: Yangi so'zlar va jummalarni tinglash hamda berilgan vazifalarni bajarish [A:1, B. 6-8; Q: 34]

Gapirish: Hindiy tilida tanishuv mavzusida suhbatlashish. "बातचीत" [A:1, B. 10-14]

3-mavzu. Tanglay tovushlari. Matralar

मूर्धन्य धनियाँ। मात्राएँ

Grammatika: Serebral tovushlar. h va j undosh tovushlari. E va v yarim unililari. O, u, o' unililarining undoshlardan so'ng ifodalanishi. [A:5, B.17-19]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish [A:5, B.18,19]

O'qish: Berilgan so'zlarni to'g'ri o'qish va berilgan vazifalarni bajarish [A:5, 19-21;]

Tinglab tushunish: Berilgan so'zlar, jummalarni tinglash va yodlash, talaffuz mashqlarini bajarish. [A:1, B.14; Q: 34]

Gapirish: "Salomlashish" mavzusida dialog qilish hamda "Darsda" mavzusida yangi so'z va jumlar o'rganish. "बातचीत" [Q:34; Q: 36; Q: 43]

4-mavzu. Nafas undosh tovushlari. Diftonglar. Viram

महाप्राण व्यंजन. संयुक्त स्वर। विराम

Grammatika: Nafas undosh tovushlari. a' va a° diftonglarining undoshlardan so'ng ifodalanishi. Viram. Undoshlarning birikib kelishi. Ligatura. [A:5, B.24-40]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish, diktant yozish. [A:1, B.21-32; A:5, B.24-40]

O'qish: Mashqlarda berilgan so'z va jummalarni ifodali o'qish hamda berilgan vazifalarni bajarish. [A:1, B.21-32; A:5, B.24-40]

Tinglab tushunish: Mavzuga doir audio mashg'ulotlarni tinglash va berilgan vazifalarni bajarish, diktant yozish. [Q: 34; Q:36, Q:43]

Gapirish: "Xonada" ("कमरे में"), "Oila" ("परिवार"), "Do'konda" ("दुकान में") mavzularida berilgan yangi so'zlar asosida suhbatlashish. "बातचीत" [Q:34; Q:43]

5-mavzu. Hindiy alifbosining o'ziga xos xususiyatlari

हिंदी वर्णमाला की विशेषताएँ

Grammatika: Burun unli tovushlari. N burun undosh tovushi. O'zlashma tovushlar va ularning yozilishi. Hindiy tili alifbosi. Visarga. Ayrim tovushlarning xususiyatlari. Urg'u [A:5, B.41-56]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish, diktant yozish [A:1, B.33-36; A:5, B.41-56]

O'qish: Berilgan so'zlar hamda qisqa jummalarni ifodali o'qish va berilgan vazifalarni bajarish. [A:1, B.33-36; A:5, B.41-56; A:7, B. 24]

Tinglab tushunish: Berilgan jummalarni tinglash, yod olish va berilgan vazifalarni bajarish [A:1, B.37-41; Q:34, Q:36, Q:43]

Gapirish: Berilgan so'zlar va jumlar asosida dialog qilish. "बातचीत". [A:1, B. 37-48; Q:34; Q:43]

6-mavzu. Grammatika. Morfologiya

व्याकरण और शब्द-विचार

Grammatika: Kishilik olmoshlari. Ko'rsatish olmoshlari. "होना" fe'lining hozirgi

zamon sodda shakli. Sodda darak gaplarda soʻzlarning tartibi. Soʻroq gaplar. Tasdiq va inkor maʼnolarini anglatilishi. Otlarning jinsi. [A:5, B.57-63]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish, diktant yozish va qisqa jumalalar tuzish [A:1, B.42-57; A:5, B.63-73]

Oʻqish: Dialogni ifodali oʻqish, yangi soʻzlarni oʻrganish va berilgan vazifalarni bajarish. “बातचीत - 1” [A:1, B.43-56; A:5, B.63-66]

Tinglab tushunish: Yangi dialogni tinglash va berilgan vazifalarni bajarish [Q:36, Q:43, Q:34]

Gapirish: “मेरा कमरा”, “मेरे घर में”, “मेरा परिवार” mavzularida suhbatlashish. Ogʻzaki nutqni rivojlantirish uchun qoʻshimcha mashqlar bajarish. Tez aytishlar oʻrganish. [Q:34; Q:36; Q:43]

7-mavzu. Feʼl. Mayl. Kelishik

क्रिया। वृत्ति। कारक

Grammatika: Infinitiv. Feʼl asosi. Buyruq mayli. Murojaat kelishigi [A:1, B.57-62; A:5, B.74-83; A:7, B.29-31]

Yozish: Mavzuga oid mashq va topshiriqlarni bajarish, diktant yozish, dialog tuzish [A:1, B.57-62; A:5, B.74-83; A:7, B.29-31]

Oʻqish: Berilgan dialogni ifodali oʻqish, yangi soʻzlarni oʻrganish, vazifalarni bajarish. “बातचीत - 2”. [A:5, B.78-80]

Tinglab tushunish: Berilgan mashqlar va dialogni tinglash hamda vazifalarni bajarish [Q:34; Q:43]

Gapirish: Dialog asosida suhbatlashish, dars jarayonini hindiy tilida sahnalashtirish. Nutqni rivojlantirish mashqlari. [Q:36]

8-mavzu. Hindiy tilida son. Olmoshlar

वचन। सर्वनाम

Grammatika: Otlarning koʻpligini yasash. Koʻplikni anglatuvchi leksik koʻrsatkichlar. Egallik olmoshlari. [A:5, B.84-88;]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish, jumalalar tuzish

Oʻqish: Berilgan dialogni ifodali oʻqish va unga doir vazifalarni bajarish. “बातचीत - 3” [A:5, B.88-95]

Tinglab tushunish: Dialogni tinglash va belgilangan vazifalarni bajarish, “सड़क पर” audiosini tinglash va gapirib berish. [Q:34, Q:43]

Gapirish: Dialogni gapirib berish, “सड़क पर” mavzusida suhbatlashish. Mavzuga doir yangi soʻzlarni oʻrganish va nutqda qoʻllash. [Q:36]

A2 BOSHLANG'ICH O'RTA DARAJA (2-SEMESTR)

1-mavzu. Otlarning kelishiklari. Ko'makchi कारक। परसर्ग

Grammatika: Vositali kelishik asosini yasash. Sodda ort ko'makchilar. का ort ko'makchisi. [A:5, B.96-101;]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish, diktant yozish, “मेरा कमरा”, “अपने बारे में” mavzulariga insho yozish. [A:1, B.70-77]

O'qish: “बातचीत - 4”. Dialogni ifodali o'qish va berilgan vazifalarni bajarish, yangi so'zlar ustida ishlash. [A:5, B.101-107;]

Tinglab tushunish: “परिवार के बारे में” audioni tinglash va unga doir vazifalarni bajarish. [A:1, B.76-77; Q:34, Q:43]

Gapirish: “मेरा घर”, “मेरा परिवार” mavzularida gapirish. Nutqni rivojlantiruvchi qo'shimcha mashqlar. [Q:36]

2-mavzu. को, में, से, पर, तक ort ko'makchilari. Sifat. To'ldiruvchi. को, में, से, पर, तक परसर्ग। विशेषण। कर्म

Grammatika: को ort ko'makchisi. में ort ko'makchisi. से ort ko'makchisi. पर ort ko'makchisi. तक ort ko'makchisi. Sifat. To'ldiruvchi. [A:5, B.108-115;]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish, diktant va insho yozish [A:5, B.116-122;]

O'qish: “हमारा देश” matnini o'qish va berilgan vazifalarni bajarish, yangi so'zlarga gap tuzish.

Tinglab tushunish: “सुनीता का परिवार” dialogni tinglash va berilgan vazifalarni bajarish [A:1, B. 77-82; Q:34; Q:43]

Gapirish: “Bizning oilam” (“हमारा परिवार”), “Bizning shahrimiz” (“हमारा नगर”) mavzularida gapirish. Berilgan dialogni gapirish. [A:1, B.83]

3-mavzu. Olmoshlarning kelishigi सर्वनाम के कारक

Grammatika: Olmoshlarning kelishigi. Kishilik olmoshlarining vositali kelishigi. Ko'rsatish olmoshlarining vositali kelishigi. So'roq olmoshlarining vositali kelishigi. Obyekt kelishigi. [A:5, B.128-135;]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish, diktant va insho yozish. [A:5, B.136-146;]

O'qish: “भोजनालय में” matnini ifodali o'qish va berilgan vazifalarni bajarish A:5, B.136-137;]

Tinglab tushunish: Berilgan yangi so'z va birikmalarni tinglash, “कुमार परिवार”, “मेरे घर में” matnlarini tinglash va berilgan vazifalarni bajarish. [A:1, B. 83-97]

Gapirish: “Do‘stimning oilasi”, “Mening uyim” va boshqa tasodifiy mavzularda gapirish a savollarga javob berish. [A:1, B.97]

4-mavzu. Sifatdosh. Zamon. Qo‘shma va murakkab ort ko‘makchilar

क्रियाविशेषण। काल। संयुक्त परसर्ग

Grammatika: Sodda notugal sifatdosh. Oddiy hozirgi zamon. “होना” fe‘lining hozirgi zamon sodda va murakkab shakli. Qo‘shma ort ko‘makchilar. Murakkab ort ko‘makchilar. [A:5, B.147-153]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish, diktant va insho yozish [A:5, B.155-164;]

O‘qish: “हमारी इस्टीमेट” matnini ifodali o‘qib, tarjima qilish va berilgan vazifalarni bajarish. [A:5, B.154-155]

Tinglab tushunish: “हमारे घर में” matnini tinglash, yangi so‘zlarga gap tuzish va berilgan vazifalarni bajarish [A:1, B.105-109]

Gapirish: Berilgan matnni gapirib berish va og‘zaki savollarga javob berish. “Mening kun tartibim” mavzusida gapirish. [A:5, B.162;]

5-mavzu. Yuklama. Gapda so‘z tartibi

अव्यय। वाक्य का शब्द क्रम

Grammatika: Kuchaytiruv yuklamalari. Sodda yoyiq gaplarda so‘zlarning tartibi. Gap bo‘laklarining moslashuvi. [A:5, B.165-171]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish, insho yozish [A:5, B.172-177;]

O‘qish: “मेरा मित्र” matnini o‘qish va berilgan vazifalarni bajarish [A:5, B.171-173;]

Tinglab tushunish: “राजेश का दिन” matnini tinglash va berilgan vazifalarni bajarish [A:1, B.113-117]

Gapirish: Berilgan matnni gapirib berish. “Mening do‘stim”, “Mening kunim” mavzularida gapirish. Dialoglar tashkil qilish. [A:5, B. 113-117; A:1, B.115]

6-mavzu. Son

संख्या

Grammatika: Sanoq sonlar. Tartib sonlar. Jamlovchi sonlar. “होना” fe‘lining o‘tgan zamon sodda shakli. [A:5, B.178-181]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish, sonlarni yozish [A:5, B.183-190; A:1, B.112]

O‘qish: “पहले और अब” matnini o‘qish va berilgan vazifalarni bajarish [A:5, B.181-183]

Tinglab tushunish: Dialogni tinglash, mazmunini gapirib berish va berilgan vazifalarni bajarish [Q:36; Q:43]

Gapirish: Berilgan matnni gapirib berish va savollarga javob berish

7-mavzu. Oddiy o'tgan zamon. Ravishdosh

सामान्य भूतकाल। क्रियाविशेषण

Grammatika: Oddiy o'tgan zamon fe'li. "होना" fe'lining o'tgan zamon murakkab shakli. Ravishdosh. [A:5, B.191-193]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish [A:5, B.196-201]

O'qish: "एक बूढ़ी स्त्री की कहानी" matnini o'qish va berilgan vazifalarni bajarish [A:5, B.194-195]

Tinglab tushunish: Tanlangan matnni tinglash, mazmunini gapirib berish va berilgan vazifalarni bajarish [Q:36; Q:43]

Gapirish: Tanlangan matnni gapirib berish va savollarga javob berish [A:7, B.33-37)

8-mavzu. Kelasi zamon. Shartli gaplar

सामान्य भविष्यकाल। संकेतसूचक वाक्य

Grammatika: Oddiy kelasi zamon. Shartli gaplar. [A:5, B.202-204]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish [A:5, B.207-212]

O'qish: "एक कारखाने के क्लब में" matnini o'qish va berilgan vazifalarni bajarish [A:5, B.204-206]

Tinglab tushunish: "नेपाल की यात्रा" dialogni tinglash, tarjima qilish va berilgan vazifalarni bajarish, audio diktant yozish. [A:1, B.124-129; Q:36; Q:43]

Gapirish: Berilgan matnni gapirib berish va savollarga javob berish. Dialog tuzish. "Mening sayohatim" mavzusida gapirib berish. [A:1, B.129]

BI O'RTA DARAJA (3-SEMESTR)

1-mavzu. Tugal o'tgan zamon

पूर्ण भूतकाल

Grammatika: Sodda tugal sifatdosh. Tugal o'tgan zamon. [A:5, B.213-217]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish. Tanlangan mavzu bo'yicha insho yozish. [A:5, B.223-224]

O'qish: "एक रेल यात्रा की कहानी" matnini o'qish va berilgan vazifalarni bajarish. Yangi so'zlarni o'rganish [A:5, B.220-227]

Tinglab tushunish: "दिल्ली" matnini tinglash va berilgan vazifalarni bajarish, yangi so'zlarga jumlarlar tuzish [Q: 34; Q:43; A:1, B.131-136]

Gapirish: Matnni gapirib berish. "Dehli shahri", "Dehlining tarixiy va zamonaviy joylari", "O'zbekistonning diqqatga sazovor joylari" mavzularida gapirish. [A:1, B.136]

2-mavzu. Gapda ega kesim moslashuvi. Ergash gaplar

उद्देश्य और विधेय की एकरूपता

Grammatika: Kesimlarning ega bilan moslashuvi. [A:5, B.217]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish, qo‘shimcha mashqlarni bajarish. [A:5, B.223-234]

O‘qish: Berilgan qo‘shimcha matn va dialoglarni o‘qib, tarjima qilish va berilgan vazifalarni bajarish [A:1, B.137-140; A:5, B.231-234]

Tinglab tushunish: Berilgan matnini tinglab tushunish va berilgan vazifalarni bajarish [A:1, B.137, 139; Q:34; Q:43; Q:36]

Gapirish: “O‘zbekistonning eng mashhur shaharlari”, “Do‘stlar bilan qiziqarli sayohatimiz” mavzularida suhbat. [A:1, B.136, 140]

3-mavzu. Tugal hozirgi zamon. “मिलना” fe‘lining xususiyatlari

पूर्ण वर्तमान काल। “मिलना” के गुण

Grammatika: Tugal hozirgi zamon. “मिलना” fe‘lining xususiyatlari [A:5, B.235-240]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish [A:5, B.242-247]

O‘qish: “भारत की राजधानी” matnini o‘qib, tarjima qilish va berilgan vazifalarni bajarish [A:5, B.240-242]

Tinglab tushunish: “Buxoro” (“बुखारा”) matnini tinglab tushunish va berilgan vazifalarni bajarish, matnga oid savollarni tinglab, javob berish [A:1, B.141-146; Q:34; Q:43]

Gapirish: Berilgan matnlar asosida erkin gapirish, suhbatlashish yoki sahna ko‘rishinishi tashkil qilish. [A:1, B.146]

4-mavzu. Uzoq o‘tgan zamon fe‘li

पूर्ण भूतकाल

Grammatika: Uzoq o‘tgan zamon fe‘li. [A:5, B.248-252]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish [A:5, B.254-260]

O‘qish: “प्रेमचंद” matnini o‘qish, tarjima qilish va matn asosida berilgan vazifalarni bajarish [A:5, B.252-257]

Tinglab tushunish: “Samarqand” (“समरकंद”) va “Toshkent” (“ताशकंद”) matnlarini tinglab tushunish, matnga oid savollarni ham tinglab, javob berish va berilgan vazifalarni bajarish [Q:34; Q:43; A:1, B.147-159]

Gapirish: Matnlarni gapirib berish va O‘zbekiston hamda Hindistonning mashhur shaharlari haqida suhbatlashish. Og‘zaki nutqni rivojlantirish uchun qo‘shimcha mashqlar bajarish. [Q:36]

5-mavzu. Protsessiv sifatdosha

घटमान कृदंत

Grammatika: Hozirgi protsessiv zamon. O‘tgan protsessiv zamon. [A:5, B.262-266]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish, gap tuzish, diktant va insho yozish. [A:5, B.269-271]

O'qish: "हवाई जहाज़ में" matnini ifodali o'qish, tarjima qilish va berilgan vazifalarni bajarish [A:5, B.266-275]

Tinglab tushunish: "मेरी दिनचर्या" matnini tinglab tushunish, soatlarning ishlatilishini tinglash, o'rganish va berilgan vazifalarni bajarish. "कौआ और लोमड़ी" va "शेर और चूहा" hikoyalarni ham tinglab tushunish va mazmunini gapirish. [A:1, B.160-167; Q:34; Q:43]

Gapirish: Berilgan matnlar asosida gapirish. "Mening kun tartibim" mavzusida gapirib berish va savollarga og'zaki javob berish. [A:1, B.168]

6-mavzu. Qo'shma fe'llar

संयुक्त क्रिया

Grammatika: Ot tarkibli qo'shma fe'llar. Fe'l tarkibli qo'shma fe'llar. Qo'shma potensial fe'llar. [A:5, B.276-278]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish, tanlangan mavzuda insho yozish. [A:5, B.282-288]

O'qish: "ताशकंद की सैर" matnini o'qib, tarjima qilish va berilgan vazifalarni bajarish [A:5, B.279-282]

Tinglab tushunish: "टेलीफोन पर" va "फोन पर" dialoglarini tinglab tushunish hamda ularga oid savollarga javob berish va berilgan vazifalarni bajarish [Q:34; Q:43; A:1, B.170-181]

Gapirish: "Telefonda suhbat" ("फोन पर बातचीत") va "Mening ertangi rejalarim" ("कल के लिये मेरी योजनाएं") mavzularida gapirib berish va matn tuzish. [A:1, B.182]

7-mavzu. Qo'shma intensiv va kompletiv fe'llar. Sifat darajalari

यौगिक और समाप्तिबोधक संयुक्त क्रियाएँ। विशेषण की अवस्थाएँ

Grammatika: Qo'shma intensiv fe'llar. Qiyosiy daraja. Ortirma daraja. Qiyosiy tuzilma. Qo'shma kompletiv fe'llar. [A:5, B.289-312]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish, berilgan mavzuda insho yozish. [A:5, B.297-302]

O'qish: "फुटबाल-मैच" matnini o'qib, tarjima qilish va berilgan vazifalarni bajarish, yangi so'zlarni o'rganish [A:5, B.294-296]

Tinglab tushunish: "उज़्बेकिस्तान और भारत" matnini tinglab tushunish va berilgan vazifalarni bajarish [Q:34; Q:43; A:1, B.183-188]

Gapirish: Berilgan matnlar asosida gapirish, savollarga javob berish. "मेरा सच्चा मित्र" mavzusida matn tayyorlash va gapirib berish. [Q:36; A:1, B.189]

8-mavzu. Oy, hafta kunlari va vaqtning ifodalanishi

महिने, सप्ताह के दिन और समय का अभिव्यक्ति

Grammatika: Oy, hafta kunlari va vaqtning ifodalanishi [A:5, B.323-329]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish, insho yozish, kun tartibi haqida yozish. [A:5, B.330-331]

O'qish: "खरीदारी" matnini o'qib, tarjima qilish va berilgan vazifalarni bajarish, qo'shimcha matn yoki hikoyani o'qib tarjima qilish, yangi so'zlarni o'rganish [A:5, B.312-321; A:7, B.40]

Tinglab tushunish: "ताजमहल" va "उज़्बेकिस्तान से चिट्ठी" matnlari audiolarini tinglab tushunish, savollarga javob yozish va berilgan vazifalarni bajarish. [Q:34; Q:43; A:1, B.190-203]

Gapirish: Audio va video mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha gapirish. "Bozorda" mavzusida gapirib berish. Berilgan mavzuda jonli muhit yaratish va suhbatlashish. [Q:36]

BI O'RTA DARAJA (4-SEMESTR)

1-mavzu. Nisbat. Ravish

वाच्य। क्रियाविशेषण

Grammatika: Majhul nisbat. Shaxsiz nisbat. Ravish va uning turlari [A:4, B.6-11]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish. Insho yozish [A:4, B.13-17]

O'qish: "एक बड़े चिड़ियाघर के छोटे निवासी" matnini o'qib, tarjima qilish va berilgan vazifalarni bajarish. Yangi so'zlarni o'rganish [A:4, B.11-13]

Tinglab tushunish: Berilgan matnning tinglash va unga doir vazifalarni bajarish [A:1, B.201-203; Q:34; Q:43]

Gapirish: "Hayvonot bog'ida" mavzusida gapirish. Dialoglar tuzish. [Q:36]

2-mavzu. Mayl. Ergash gaplar

वृत्ति। मिश्रित उपवाक्य

Grammatika: Istak maylining sodda shakli. Istak mayli sodda shaklining majhul nisbati. To'ldiruvchi ergash gap. Maqsad ergash gapli qo'shma gap [A:4, B.17-22]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish [A:4, B.27-36]

O'qish: "नई दुनिया की यात्रा" matnini o'qib, tarjima qilish va berilgan vazifalarni bajarish [A:4, B.22-27]

Tinglab tushunish: "बस में" dialogini tinglab tushunish, savollarga javob berish va berilgan vazifalarni bajarish [Q:34; Q:43; A:1, B.224-208]

Gapirish: Berilgan hikoyani gapirib berish. "Avtobusda" mavzusida suhbatlashish. [A:1, B.211]

3-mavzu. Infinitiv. Zaruratni anglatuvchi infinitivli gaplar

क्रिया का साधारण रूप। आवश्यकता बोधक क्रिया

Grammatika: Infinitivning fe'llik xususiyatlari. Infinitivning otlik xususiyatlari. Infinitivning sintaktik funksiyalari. Zaruratni anglatuvchi infinitivli gaplar [A:4, B.36-40]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish. Insho yozish [A:4, B.44-48]

O'qish: "डाक्टर के पास" matnini o'qib tarjima qilish va berilgan vazifalarni bajarish [A:4, B.40-54]

Tinglab tushunish: "साहित्यिक सम्बंध" va "डाक्टर के पास" matnini tinglab tushunish, savollarga javob berish va berilgan vazifalarni bajarish. [A:1, B.209-211; Q:36]

Gapirish: Berilgan matnni gapirib berish, "Doktor huzurida", "Bemor va shifokor" mavzularida dialog qilish. [Q:36]

4-mavzu. "-वाला" so'z yasovchi morfemasi

"वाला" शब्द निर्माण प्रत्यय

Grammatika: "-वाला" so'z yasovchi morfemasi [A:4, B.54-59]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish, insho yozish [A:4, B.63-69]

O'qish: "मध्य एशिया और भारत के पुराने सम्बन्धों के इतिहास से" matnini o'qib, tarjima qilish va berilgan vazifalarni bajarish [A:4, B.59-62]

Tinglab tushunish: B1 darajadagi audiolardan tinglab tushunish va berilgan vazifalarni bajarish [Q:36]

Gapirish: "Hindiston va O'zbekiston o'rtasidagi aloqalar" mavzusida suhbatlashish. [A:4, B.59]

5-mavzu. Hindiy tilida sifatdoshlar. Murakkab sifatdosh

हिन्दी में कृदन्त। संयुक्त कृदन्त

Grammatika: Sodda sifatdosh. Murakkab sifatdosh. Murakkab sifatdoshlarning sintaktik funksiyalari. Murakkab sifatdosh - aniqlovchi vazifasida. Majhul sifatdosh. Qo'shma ot kesim. Murakkab sifatdosh - qo'shma ot kesimning ot qismi vazifasida. [A:4, B.69-75]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish [A:4, B.80-89]

O'qish: "गौदान" matnini o'qib, tarjima qilish va berilgan vazifalarni bajarish [A:4, B.76-80]

Tinglab tushunish: B1 darajadagi audiolardan tinglab tushunish va berilgan vazifalarni bajarish [Q:36]

Gapirish: Berilgan matn yoki hikoyani gapirib berish. [Q:36]

6-mavzu. Shart mayli. Shart ergash gapli qo'shma gaplar

संकेतार्थक वृत्ति। शर्तवाचक उपवाक्य

Grammatika: Shart mayli. Shart mayli sodda shaklining majhul nisbati Shart ergash gapli qo'shma gaplar. [A:4, B.89-94]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish, insho yozish [A:4, B.100-107]

O'qish: "चैननगर के चार बेकार" matnini o'qish va berilgan vazifalarni bajarish [A:4, B.95-100]

Tinglab tushunish: B1 darajadagi audiolardan tinglab tushunish va berilgan vazifalarni bajarish [Q:36]

Gapirish: Tanlangan tasodifiy mavzuda gapirish. Berilgan hikoyani so'zlab berish.

7-mavzu. Davomiy tus. Sabab ergash gapli qo'shma gaplar

लगातारता बोधक क्रिया। कारणवाचक उपवाक्य

Grammatika: Davomiy tus. Davomli holatning ifodalanishi. Sabab ergash gapli qo'shma gaplar [A:4, B.107-111]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish. Insho yozish. [A:4, B.115-123]

O'qish: "भारत की स्वतंत्रता के प्रथम संग्राम के महावीर", "संग्राम के श्रीगणेश का कारण" va "महारानी लक्ष्मीबाई" matnlarini o'qib, tarjima qilish va berilgan vazifalarni bajarish [A:4, B.]

Tinglab tushunish: B1 darajadagi audiolardan tinglab tushunish va berilgan vazifalarni bajarish [Q:36]

Gapirish: "O'zbekistonning mashhur qahramonlari" mavzusida gapirish.

8-mavzu. Davomli - progressiv tus. Qiyosiy ergash gapli qo'shma gaplar

लगातारता - प्रगतिशील बोधक क्रिया। तुलनात्मक उपवाक्य

Grammatika: Davomli - progressiv tus. Qiyosiy ergash gapli qo'shma gaplar [A:4, B.123-127]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish. Insho yozish. [A:4, B.130-136]

O'qish: "भारत का समुद्री मार्ग", "भारत में पुर्तगाल का उपनिवेश" va "सूर्य और वायु" matnlarini o'qib, tarjima qilish va berilgan vazifalarni bajarish [A:4, B.127-130]

Tinglab tushunish: B1 darajadagi audiolardan tinglab tushunish va berilgan vazifalarni bajarish [Q:36]

Gapirish: Berilgan matnlarni gapirib berish, o'rgangan yangi so'zlarni nutqda qo'llash. Gapirish ko'nikmasini oshirish uchun qo'shimcha mashqlar. [A:7; Q:36]

B2 YUQORI O'RTA DARAJA (5-SEMESTR)

1-mavzu. Takroriy tus. Payt ergash gapli qo'shma gaplar

अभ्यास बोधक क्रिया। कालवाचक उपवाक्य

Grammatika: Takroriy tus. Payt ergash gapli qo'shma gaplar [Q:27, B.402-404]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish [Q:27, B.170-180]

O'qish: "पत्र व्यवहार" matni o'qish va berilgan vazifalarni bajarish [Q:27, B.160-165]

Tinglab tushunish: B2 yuqori o'rta darajadagi audiolardan tinglab tushunish va berilgan vazifalarni bajarish [Q:36]

Gapirish: "Til bilishning afzalliklari" [internet, ARM, Q:18]

2-mavzu. Taxmin mayli. O'rin ergash gapli qo'shma gaplar

संदेहार्थक वृत्ति। स्थानवाची क्रियाविशेषण उपवाक्य

Grammatika: Taxmin mayli. Taxmin maylining sodda shakli. Taxmin maylining qo'shma notugal shakli. Taxmin maylining qo'shma tugal shakli. Taxmin maylining protsessiv shakli. O'rin ergash gapli qo'shma gaplar. [A:4, B.158-165]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish [A:4, B.169-171]

O'qish: "जब मैं पढ़ता था" matni o'qish va berilgan vazifalarni bajarish [A:4, B.165-169]

Tinglab tushunish: B2 yuqori o'rta darajadagi audiolardan tinglab tushunish va berilgan vazifalarni bajarish [Q:36]

Gapirish: Berilgan siyosiy-ijtimoiy mavzudagi matnlarni gapirib berish, o'rgangan yangi so'zlarni nutqda qo'llash. [Q:39,40]

3-mavzu. Fe'l asosi. Kauzativ fe'llar

क्रिया मूल। प्रेरणार्थक क्रिया

Grammatika: Fe'l asosi. Kauzativ fe'llarning yasalishi [A:4, B.172-178]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish [A:4, B.181-188]

O'qish: "ताजमहल" matni o'qish va berilgan vazifalarni bajarish [A:4, B.178-181]

Tinglab tushunish: B2 yuqori o'rta darajadagi audiolardan tinglab tushunish va berilgan vazifalarni bajarish [Q:36, 37, 38]

Gapirish: "Tarixiy shaharlar – tarix ko'zgusi" (Hindiston-O'zbekiston misolida) mavzusida taqdimot tayyorlash [internet, ARM]

4-mavzu. Istak maylining murakkab shakllari

संभावनार्थक वृत्ति के संयुक्त रूप

Grammatika: Istak maylining qo'shma notugal shakli. Istak maylining qo'shma tugal shakli. Istak maylining protsessiv shakli [A:2, B.4-26]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish [A:2, B.4-5; 12-13; 18-21]

O'qish: "रेलवे सफ़र" va "भारत की भौगोलिक स्थिति" (1) matnlarini o'qish va berilgan vazifalarni bajarish [A:2, B.7-8; 14-16; 21-24]

Tinglab tushunish: B2 yuqori o'rtta darajadagi audiolardan tinglab tushunish va berilgan vazifalarni bajarish [Q:36, 42]

Gapirish: "कुतुब मीनार" matni [A:2, B.8-9] hamda "चुटकुले" mavzudagi matnlarni gapirib berish [Q:27; B:159, 181, 202, 250]

5-mavzu. Shart maylining murakkab shakllari संकेतार्थक वृत्ति के संयुक्त रूप

Grammatika: Shart maylining qo'shma notugal shakli. Shart maylining qo'shma tugal shakli. Shart maylining protsessiv shakli. [A:2, B.27-46]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish [A:2, B.28-29;32-34; 37-38; 41-42; 44-46]

O'qish: "भारत की भौगोलिक स्थिति"(2) va "भारत की शिक्षा प्रणाली" matnlarni o'qish va berilgan vazifalarni bajarish [A:2, B.29-32; 37-39]

Tinglab tushunish: B2 yuqori o'rtta darajadagi audiolardan tinglab tushunish va berilgan vazifalarni bajarish [Q:36, 37]

Gapirish: Berilgan matndan (प्रेमचंद, "राबन" के आधार पर) parchani gapirib berish, o'rgangan yangi so'zlarni nutqda qo'llash. [Q:27; B:68-69]

6-mavzu. Taqlid so'zlar. Undov. Undalma ध्वन्यात्मक शब्द. विस्मयादिबोधक अव्यय. संबोधन

Grammatika: Taqlid so'zlar. Undov. Undalma [A:2, B.46-48; Q:28, B:331-333; Q:27, B:349-351]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish [A:2, B.48-54]

O'qish: "हिसाब का पाठ" matnini o'qish va berilgan vazifalarni bajarish [A:2, B.50-51]

Tinglab tushunish: B2 yuqori o'rtta darajadagi audiolardan tinglab tushunish va berilgan vazifalarni bajarish [Q:36, 37, 41]

Gapirish: Maqol, matal, topishmoq ayitib berish [Q:37]

7-mavzu. Ravishdoshlar क्रियावाचक क्रियाविशेषण

Grammatika: Otdan yasalgan ravishdoshlar. Sodda notugal ravishdoshlar. Qo'shma notugal ravishdoshlar. Sodda tugal ravishdoshlar. Qo'shma tugal ravishdoshlar. "बिना", "बैगर" morfemalari bilan ishlatiluvchi inkor ravishdoshlari. "करते-करते" shaklidagi juft ravishdoshlar [A:2; B:52-70]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish [A:2; B:55-60]

O'qish: "हिसाब का पाठ" (2) matnini o'qish va berilgan vazifalarni bajarish [A:2, B.56-58]

Tinglab tushunish: B2 yuqori o'rtta darajadagi audiolardan tinglab tushunish va berilgan vazifalarni bajarish [Q:40]

Gapirish: “गणित शब्द का इतिहास” matnini gapirib berish [A:2, B:59-60]

8-mavzu. Son

संख्य

Grammatika: Kasr va ko‘payuvchi son [Q:27, B:383-385]

Yozish: Mavzuga doir mashq va topshiriqlarni bajarish [Q:27, B:122-137]

O‘qish: Mashqda berilgan matnni o‘qish va berilgan vazifalarni bajarish [Q:27, B:124-126]

Tinglab tushunish: B2 yuqori o‘rta darajadagi audiolardan tinglab tushunish va berilgan vazifalarni bajarish [Q:38]

Gapirish: “उज्बेकिस्तान की भौगोलिक स्थिति” mavzusida taqdimot tayyorlash (internet, ARM)

B2 YUQORI O‘RTA DARAJA (6-semestr)

1-mavzu. Hindiy tilida so‘zlarning yasalishi

हिंदी में शब्द निर्माण

